

Date: 21st March-2026

KESIM VA UNING IFODALANISHI MAVZUSINI O'QITISH

Vafoqulova Go'zal Ochilovna

Samarqand davlat chet tillar instituti akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada Ona tili darslarida kesim va uning ifodalanishi mavzusini o'qitishda qo'llanuvchi metodlar mavzusi bo'yicha uslubiy metodik ta'limot keltirildi.

Kalit so'zlar: Gapning bosh bo'lagi, grammatik munosabat, kesim, sintaktik aloqa, tobe bo'lak, hokim bo'lak

Ta'limda "Sintaksis" bo'limini o'qitishning yangi innovatsion tizimini yaratish o'zbek tili fanining muhim vazifalaridan biri ekanligini anglaymiz

KESIM VA UNING IFODALANISHI

Kesimlik (shaxs-son, zamon, tasdiq-inkor, mayl) ma'nosini ifoda etgan gapning markaziy bo'lagi kesim deyiladi. Kesim gapning markaziy bo'lagidir. U boshqa bo'laklarsiz ham gap bo'la oladi. Yaxshimisiz. Keldi kabi. 5*

Kesim *nima qil (-di?-yapti? -moqchi?) nima bo'l(-di?-yapti? -moqchi?) kim (dir)? nima (dir)? (qayerdir?)* kabi so'roqlarga javob bo'luvchi mustaqil so'zlar gapda kesim bo'lib keladi

Masalan, Ishlasang, tishlaysan maqoli ikkita kesimdan tashkil topgan. Birinchisi nima qilsang? Ikkinchisi nima qilasan? so'roqlariga javob bo'ladi. *Otam — o'qituvchi* gapida o'qituvchi bo'lagi kesim sanalib, **kim (dir)? Kim hisoblanadi?** so'roqlariga javob bo'ladi.

Kesim -gap markazi bo'lib, u tasdiq-inkor, zamon, mayl, shaxs-son ma'nolarini ifodalab keladi, hukmni ifodalaydi va gapning boshqa bo'laklarini o'z atrofida birlashtiradi. Gapni yuzaga keltirish, fikrni ifodalash jihatidan kesimning gapdagi ahamiyati juda katta. U hukmni ifodalovchi, gaplikning asosiy belgilarini ko'rsatuvchi eng muhim bo'lakdir. Gapda ega ham, ikkinchi darajali bo'laklar (**to'ldiruvchi, aniqlovchi, hol**) ham bevosita yoki bilvosita kesimga bog'lanadi. Kesimlik ma'nolari kesimlik shakllari orqali ifodalanadi.

Har bir kesimlik ma'nosi alohida-alohida ifodalanishi mumkin

Men yozmasaydim

Kesimlik shakllari	-ma	-say	-di	-m
Kesimlik ma'nolari	(<i>inkor</i>)	(<i>mayl</i>)	(<i>zamon</i>)	(<i>shaxs-son</i>).

Bitta kesimlik shakli bir necha kesimlik ma'nolari orqali ifodalanadi

U keldi

Kesimlik shakllari	-	-	-di	-
Kesimlik ma'nolari	<i>Tasdiq</i>	<i>mayl (xabar)</i>	<i>zamon (o'tgan)</i>	<i>shaxs-son (III shaxs, birlik)</i>

Kesimlik ma'nolari nol shakl orqali ifodalanadi



Date: 21st March-2026

<i>Sen kel</i>				
Kesimlik shakllari	-	-	-	-
Kesimlik ma'nolari	<i>Tasdiq</i>	<i>mayl (buyruq)</i>	<i>zamon (kelasi)</i>	<i>shaxs-son (II shaxs, birlik)</i>

FE'L KESIM VA OT KESIM

Kesimlar qaysi turkum so'zlari bilan ifodalanishiga ko'ra ikki xil bo'ladi	
fe'l kesimlar	ot kesimlar
fe'l va uning sifatdosh, ravishdosh shakllari bilan ifodalangan kesimlardir	fe'ldan boshqa so'z turkumlari- ot, sifat, son, olmosh, ravish, taqlid so'z, fe'lning harakat nomi shakli bilan ifodalangan kesimdir
<i>kitob o'qiyapman</i> gapida o'qiyapman nima qilyapman? so'rogiga javob bo'lib, fe'l kesim sanaladi.	<i>Opam — shifokor</i> gapida shifokor kim(dir)? so'rog'iga javob bo'lib, ot kesim hisoblanadi.

Fe'l kesimning ifodalanishi

Sof fe'l bilan	<i>Halol mehnat insonni ulug'laydi</i>
Ravishdosh bilan	<i>Motor gurillab, mashina oldinga intildi</i>
Sifatdosh bilan	<i>It hurur - karvon o'tar</i>

Ot kesimning ifodalanishi

Sifat bilan5*	<i>Osmonimiz musaffo. Havo toza. Usti yaltiroq, ichi qaltiroqdir</i>
Ot bilan5*	<i>Men talabaman</i>
Son bilan5*	<i>Sinfimizda o'quvchilar soni o'ttizta. Ikki karra ikki to'rt</i>
Olmosh bilan5*	<i>Yaxshi niyatli kishilarning ahdi - shu! Niyatim —shu!</i>
Ravish bilan5*	<i>Hosilning cho'g'i mo'l. Sizdan umidim ko'p</i>
Harakat nomi bilan	<i>Maqsadimiz yaxshi o'qishdir. O'qish igna bilan quduq qazish</i>
Taqlid so'z bilan	<i>Osmonda yulduzlar g'uj-g'uj</i>
Undov so'z bilan	<i>Uning holiga voy</i>
Modal so'z bilan	<i>Yo'qoling siz bilan adi-badi aytishishga vaqtim yo'q</i>

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. B.Mengliyev, O'.Xoliyorov. O'zbek tilidan universal qo'llanma – T., 2017;

